

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)
(2019-yil 1-mart holatiga)

2019-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda 1493 ta korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari) yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 784 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3378 ta (17,7 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 22421 tani tashkil etgan.












Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


| Tarmoqlar nomi | Ro'yxatdan o'tgan | Faoliyat ko'rsatayotgan | Yangi tashkil etilgan |
|--|-------------------|-------------------------|-----------------------|
|  Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 2957 | 2902 | 222 |
|  Sanoat | 2858 | 2812 | 332 |
|  Qurilish | 2781 | 2721 | 146 |
|  Savdo | 5375 | 5286 | 499 |
|  Tashish va saqlash | 815 | 800 | 36 |
|  Yashash va ovqatlanish bo'vicha xizmatlar | 963 | 944 | 80 |
|  Axborot va aloqa | 258 | 274 | 9 |
|  Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 515 | 512 | 18 |
|  Boshqa turlari | 6336 | 6197 | 151 |



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.

2019-yilning 1-mart holatiga 22858 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 23,5 % savdo, 12,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 12,5 % sanoat, 12,2 % qurilish, 4,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,6 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,1 % axborot va aloqa hamda 27,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Qarshi shahri (4902 ta), Koson (1866 ta), Chiroqchi (1866 ta) va Qarshi (1712 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Mirishkor (735 ta), Nishon (835 ta) hamda Muborak (847 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni, mingda.





✚ Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 22421 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3378 ta (17,7 %) ga o'sgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,6 % savdo, 12,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 12,5 % sanoat, 12,1 % qurilish, 4,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,6 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa va 27,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Qarshi shahri (4693 ta), Chiroqchi (1846 ta), Koson (1844 ta), Qarshi (1693 ta) va Kitob (1586 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Mirishkor (732 ta), Muborak (820 ta) hamda Nishon (828 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda

01.03.2017 y.

• 18398 ta

01.03.2018 y.

• 19043 ta

01.03.2019 y.


• 22421 ta



Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar.

2019-yil yanvar-fevral oylarida 1493 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 21,6 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Qarshi shahri (257 ta), Chiroqchi (154 ta), Kasbi (115 ta) va Kitob (105 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Muborak (37 ta), Dehqonobod (59 ta) hamda G'uzor (64 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (499 ta), sanoat (332 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (222 ta) va qurilish (146 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (9 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (18 ta) hamda tashish va saqlash (36 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

| | 01.03.2017 y. | | 01.03.2018 y. | | 01.03.2019 y. | |
|--|-----------------|------------|-----------------|------------|-----------------|------------|
| | Korxonalar soni | ulushi, % | Korxonalar soni | ulushi, % | Korxonalar soni | ulushi, % |
| Viloyat bo'yicha jami | 521 | 100 | 709 | 100 | 1493 | 100 |
| Savdo | 113 | 21,7 | 143 | 20,2 | 499 | 33,4 |
| Sanoat | 106 | 20,3 | 97 | 13,7 | 332 | 22,2 |
| Qishloq va o'rmon xo'jaligi | 143 | 27,4 | 111 | 15,7 | 222 | 14,9 |
| Qurilish | 55 | 10,6 | 82 | 11,6 | 146 | 9,8 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 28 | 5,4 | 27 | 3,8 | 80 | 5,4 |
| Tashish va saqlash | 14 | 2,7 | 13 | 1,8 | 36 | 2,4 |
| Axborot va aloqa | 9 | 1,7 | 8 | 1,1 | 9 | 0,6 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 4 | 0,8 | 16 | 2,3 | 18 | 1,2 |
| Boshqa turlari | 49 | 9,4 | 212 | 29,9 | 151 | 10,1 |

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda






TIJORAT KORXONALAR

2019-yil 1-mart holatiga 17802 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 7807 ta, oilaviy korxonalar – 819 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 8667 ta va boshqalar 509 tani tashkil etgan.


Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.


2019-yil 1-mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 102 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 44 taga yoki 75,9 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 78 tasi qo'shma korxonalar, 23 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.



Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Qarshi shahar (32 ta yoki jami ulushi 31,6 %), Kitob tumani (11 ta yoki 10,8 %) va Qamashi tumanlari (9 ta yoki 8,9 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Mirishkor (2 ta yoki 1,9 %), Chiroqchi (2 ta yoki 1,9 %), Yakkabog' tumanlari (2 ta yoki 1,9 %), va Dehqonobod (3 ta yoki 2,9 %), Nishon (3 ta yoki 2,9 %) hamda Shahrisabz shahar (3 ta yoki 2,9 %), hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 57 tani (56,4 %), savdoda 15 tani (14,9 %) hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida esa 12 tani (11,9 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqada 1 tani (1,0 %), tashish va saqlashda 2 tani (2,0 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 4 tani (4,0 %), qurilishda 5 tani (5,0 %) tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yilning yanvar-fevral oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 15 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 4 ta, Qozog'iston Respublikasi – 2 ta, Eron Islom Respublikasi – 2 ta, Turkiya Respublikasi – 2 ta, Afg'oniston – 2 ta, Bolgariya Respublikasi – 1 ta, Tojikiston Respublikasi – 1 ta, Turkmaniston – 1 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019 yil davomida, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (7 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (3 ta), savdo (3 ta), qurilish (1 ta) va (1 ta) boshqa turdagi xizmatlar ko'satish hissasiga to'g'ri keladi.





Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni.


2019-yil 1-mart holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 17645 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 mart holatiga qaraganda 19,6 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3851 tasi (21,8 %) Qarshi shahri, 1484 tasi (8,4 %) Koson, 1436 tasi (8,1 %) Chiroqchi, 1404 tasi (8,0 %) Qarshi tumani, 1184 tasi (6,7 %) Qashqadaryo viloyati boshqa tumanlariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 17645 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 5253 tasi (29,8 %) – savdo, 2867 tasi (16,2 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2769 tasi (15,7 %) - sanoat, 2696 tasi (15,3 %) - qurilish, 930 tasi (5,3 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 783 tasi (4,4 %) - tashish va saqlash, 382 tasi (2,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 242 tasi (1,4 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek 1723 tasi (9,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-fevral oylarida 1382 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 65,3 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Qarshi shahri (238 ta), Chiroqchi (144 ta), Kasbi (111 ta) va Kitob tumanlari (103 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Muborak (36 ta), Dehqonobod (52 ta) hamda Nishon (59 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (491 ta), sanoatda (331 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (220 ta), qurilishda (145 ta) va tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (9 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (18 ta) hamda tashish va saqlashda (36 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar soni




Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019-yilning 1-mart holatiga 833 tani tashkil etib, ulardan 819 tasi yoki 98,3 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 1,0 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 29,5 % yoki 242 tasi sanoat, 19,5 % yoki 160 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,6 % yoki 152 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 17,1 % yoki 140 tasi savdo, 2,7 % yoki 22 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,8 % yoki 15 tasi qurilish, 1,2 % yoki 10 tasi tashish va saqlash, 0,2 % yoki 2 tasi axborot va aloqa hamda 9,3 % yoki 76 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa axborot va aloqa hamda tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Tugatilgan korxonalar va tashkilotlar


2019-yilning yanvar-fevral oylarida jami 169 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan.

Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 40 taga tugatish ko'pdir.

Albatta xo'jalik yurituvchi subyektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yurtimizda talaygina ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda.

Misol tariqasida 2017-yilda 182 ta, 2018-yilda 129 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bo'lsa, 2019-yilning yanvar-fevral oylarida ushbu ko'rsatkich 169 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 40 taga tugatish ko'pdir.

**Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida
dinamikasi, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tugatilgan 169 ta korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 62 tasi (36,7 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 37 tasi (21,9 %) savdo, 23 tasi (13,6 %) qurilish, 20 tasi (11,8 %) sanoat, 5 tasi (3,0 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda hamda 22 tasi (13,0 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, tugatilgan korxonalarining asosiy qismi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.


Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

| | 01.03.2018 yil | | 01.03.2019 yil | | |
|-------------|-----------------|-----------------------|-----------------|-----------------------|--------------|
| | Soni (birlikda) | jamiga nisbatan, % da | Soni (birlikda) | Jamiga nisbatan, % da | Farqi, (+,-) |
| Jami | 129 | 100,0 | 169 | 100,0 | 40 |

shu jumladan:

| | | | | | |
|--|----|------|----|------|-----|
| qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 21 | 16,3 | 62 | 36,7 | 41 |
| sanoat | 14 | 10,9 | 20 | 11,8 | 6 |
| qurilish | 20 | 15,5 | 23 | 13,6 | 3 |
| savdo | 47 | 36,4 | 37 | 21,9 | -10 |
| tashish va saqlash | 3 | 2,3 | 1 | 0,6 | -2 |
| yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | - | - | 5 | 3,0 | 5 |
| axborot va aloqa | 2 | 1,6 | 3 | 1,8 | 1 |
| sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 2 | 1,6 | - | - | -2 |
| boshqa turlari | 20 | 15,5 | 18 | 10,7 | -2 |

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan DINAMIKASI (+,-)



2019-yil yanvar-fevral oylarida 137 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan. Bu esa o'tgan yilga nisbatan 17 taga ko'p kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan.

Tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi 39 tasi (28,5%) savdo, 26 tasi (19,0 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 23 tasi (16,8 %) qurilishda, 20 tasi (14,6 %) sanoat, 5 tasi (3,6 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3 tasi (2,2 %) axborot va aloqada hamda 24 tasi (17,5 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Ushbu yo'nalishda asosan Kitob tumanida -16 ta, Chiroqchi tumanida - 12 ta, Muborak tumanida - 6 ta hamda G'uzor tumanida - 4 ta, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan ko'p tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.



Statistik registrarni yuritish bo'limi
Tel.:71-230-84-10 (11)
Tel.:75-221-17-93